

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Davlat statistika qo‘mitasi**

**Korrupsiyaga qarshi ichki**  
**nazorat xizmati boshlig‘i**  
**Z.D. Abduxamidovdan**

**2021- YIL UCHUN HISOBOT**

2021- yilda Davlat statistika qo‘mitasi tizimida korrupsiya xafv-xatarlarni aniqlash, ularni baholash, oldini olish va xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida, 2020- yil 20- oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tizimida 2021- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy **KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR REJASI**” tasdiqlangan. Shu o‘rinda Davlat statistika qo‘mitasi hududiy statistika organlari mazkur chora-tadbirlar rejasi bilan tanishib, qo‘mita chora-tadbirlar rejasidan foydalangan holad o‘zlarining **2021- yil uchun** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlashdi. Hududiy statistika organlari tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejalari nazorat qilish maqsadida nusxalari yig‘ib olindi

Qo‘mitada korrupsiyaga qarshi kurashishga **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati** ma’sul bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq masalalar:

- korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo‘lish;
- korrupsiyaviy omillarni aniqlash va baholash;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ularni kamaytirish;
- qo‘mita tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy savodxonligini oshirish;
- korrupsiyaga moyil lavozimlar va korrupsoiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlarni aniqlash;
- manfaatlar to‘qnashuvi oldini olish va tahlil qilish;
- davlat xaridlari bo‘yicha xaridlarni tahlil qilish;
- ishga qabul qilish jarayonlarni ochiq va shaffof tarizida tashkil etilganini nazorat qilish;

- qo‘mitada korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish hamda nazorat qilish;
- ishonch telefonlarini muntazam ravishda ishlashini nazorat qilish;
- qo‘mita xodimlar o‘rtasida davra suhbatlari va treninglar tashkil etish;
- qo‘mitada korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lishga qaratilgan targ‘ibotlar tashkillashtirish belgilangan.

Qo‘mita tizimida korrupsiya holatlariga duch kelgan yuridik va jismoniy shaxslarni murojatlari uchun ishonch aloqa telefonlari muntazam ishlab kelmoqda.

**2021- yilning VI-chorak bo‘yicha**, hududiy statistika organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat statistika boshqarmalari korrupsiyaga qarshi kurashishga ma’sul xodimlar tomonidan korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo‘lish, uning omillari hamda korrupsiyani keajakka tasiri yuzsidan davra suhbatlari tashkil etildi.

Bo‘lib o‘tgan yig‘ilishlarga oid bayonnomalar nusxasi hududiy statistika organlaridan yig‘ib olindi

Shu o‘rinda, qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va bu illatga murosasiz munosabatda bo‘lishga oid tarqatma materiallar yuridik va jismoniy shaxslarga tarqatildi.

Ma’lumot uchun:

**Qoraqalpoq Respublikasi** va **Andijon viloyati** statistika boshqarmalari tomonidan “Korrupsiya bu jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan illat”, Korrupsiya chorlovchi har qanday chaqiriqlarga YO‘Q deb javob bering” va “Siz korrupsiyani to‘xtata olasiz”;

**Buxoro viloyati** statistika boshqarmasi tomonidan “Korrupsiya mamlakat ravnaqini barbot qiladi”, “Korrupsiyaga asoslangan hayot!”, “Korrupsiya bolalarning barkamol o‘shishiga to‘sqinlik qiladi va bilimsizlikni keltirib chiqaradi”, “Korrupsiyasiz hayot-kelajak sening qo‘lingda” va “Siz korrupsiyani to‘xtata olasiz”;

**Jizzax viloyati** statistika boshqarmasi tomonidan “Korrupsiya jamiyat kushandasi”, “Unutmang, korrupsiyadan har birimiz jabr ko‘ramiz”, “Korrupsiyaga YO‘Q deng!” va “Faqatgina birga Korrupsiyani to‘xtata olamiz”;

**Qashqadaryo vilovati** statistika boshqarmasi tomonidan “Oshkoralik korrupsiya illatini payini qiradi”, “Korrupsiya taraqqiyot yo‘lidagi g‘ov” va “Korrupsiya adolatsizlikka yo‘l ochadi”

**Namangan vilovati** statistika boshqarmasi tomonidan “Agar siz korrupsioner taziqi ostiga tushgan bo‘lsangiz”, Pora olma, pora berma”, Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq!”, “Korrupsiyani birga yengamiz” va “Siz korrupsiyani to‘xtata olasiz”;

**Navoiy vilovati** statistika boshqarmasi tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunchilik”, “Siz korrupsiyani to‘xtata olasiz!” va “Korrupsiya o‘zi nima?”;

**Samarqand vilovati** statistika boshqarmasi tomonidan “Korrupsiya barqaror rivojlanish uchun to‘siq”, “Korrupsiyaga to‘qnashdingizmi qo‘ng‘iroq qiling”, “Unutmang, korrupsiyadan har birimiz jabr ko‘ramiz”, “Biz korrupsiyaga qarshimiz”, “Pora olib o‘zing va oiling hayotini doxaxga aylantirma”, “Korrupsiyaga yo‘l yo‘q” va “Korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi”;

**Surxondaryo viloyati** statistika boshqarmasi tomonidan “Biz korrupsiyaga qarshi birgalikdakin kurashamiz”, Korrupsiya-bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan daxshadli illatdir” va “Korrupsiya-taraqqiyot kushandasi”;

**Sirdaryo viloyati** statistika boshqarmasi tomonidan “Korrupsiyaga yo‘l yo‘q”, “Korrupsiya barqaror rivojlanish uchun to‘siq” va “Korrupsiyadan har birimiz jabr ko‘ramiz”;

**Toshkent viloyati** statistika boshqarmasi tomonidan “Korrupsiya barqaror rivojlanish uchun to‘siq”, “Korrupsiyaga to‘qnashdingmi”, “Siz korrupsiyani to‘xtata olasiz” va “Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari”;

**Farg‘ona viloyati** statistika boshqarmasi tomonidan “Unutmang, korrupsiyadan har birimiz jabr ko‘ramiz”, “Korrupsiya-bu jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan illat” va “Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari”;

**Xorazm viloyati** statistika boshqarmasi tomonidan “Unutmang, korrupsiyadan har birimiz jabr ko‘ramiz”, “Korrupsiya barqaror rivojlanish uchun to‘siq” va “Korrupsiyaga to‘qnashdingmi qo‘ng‘iroq qil!”;

**Toshkent shahri** statistika boshqarmasi tomonidan “Korrupsiya barqaror rivojlanish uchun to‘siq”, “Unutmang, korrupsiyadanhar birimiz jabr ko‘ramiz” va “Biz korrupsiyaga qarshimiz!” mavzudagi tarqatma materiallari yuridik va jismoniy shaxslarga tarqatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparati, hududiy statistika organlari, tizim tashkilotlaridagi **vakant lavozimlarga ishga qabul qilish**, xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazishda **tanlov asosida saralab olish** to‘g‘risida”gi tartib imzolandi.

Mazkur **Tartib ijrosini ta‘minlash maqsadida**, qo‘mita tomonidan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha ma‘lumotlar Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portaliga (<https://vacancy.argos.uz/>) doimiy ravishda kiritilib kelindi hamda o‘tkazilgan **test sinovlari va suhbatlar** (<https://stat.uz.youtube>) **qo‘mitaning veb-sayitiga joylashtirib borildi**.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 6- iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-6257-son Farmoni** va “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ-5177-son qarori** ijrosini ta‘minlash so‘ralgan.

Mazkur qarorda vazirlik va idoralarda **korrupsiyaga qarshi ichki nazorat** tuzulmalari faoliyati yo‘lga qo‘yish belgilangan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi Raisining 2021- yil 30- avgustdagi **309-son buyrug‘iga asosan**, qo‘mitada Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tashkil etildi hamda uning vazifa va funksiyalari belgilandi.

Qo‘mitada Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati 2 shtat birlikda tashkil etilib, **alohida xona va moddiy texnika** bilan taminladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 22- oktabrdagi PQ-5263-son “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan

o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga asosan, Davlat statistika qo‘mitasi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan qarorda belgilangan **5 ta normativ-hujjatni ekspertizadan o‘tkazilib**, Adliya vazirligiga ma’lumot yuborildi (*12-ilova*).

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan hududiy statistika organ xodimlariga online tarzda davra suhbatini tashkil etilib korrupsiya omillari hamda ularning oqibati haqida tushuntirildi.

Ichki nazorat xizmati tomonida Bosh prokuratura va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi so‘roviga asosan, tizimda korrupsiya holatlari kelib chiqishini oldini olishga taklif ishlab chiqib, o‘rnatilgan tartibda yuborildi.

Ichki nazorat xizmati 2021- yilning 13-17- dekabr kunlari Toshkent shahar statistika boshqarmasida **xizmati safari tashkil etildi**. Xizmat safari davomida Toshkent shahar statistika boshqarmasi hamda uning tuman bo‘limlari korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan va amalga oshirilgan ish faoliyati o‘rganib chiqildi va o‘rganish natijalari bo‘yicha ma’lumot tayyorlanib rahbaryatga taqdim etildi.

Qo‘mitaning ichki nazorat xizmati tomonidan xodimlarning odob-axloq qoidalariga rioya etilishi hamda korrupsiya xolatlariga duch kelmasligi uchun nazorat tashkil etildi. Masalan, sovg‘a berish tartibi o‘rnatildi.

Davlat statistika qo‘mitasi ishonch telefonlari nazoratga olindi.

Murojat uchun telefon – **(71) 203-80-00**

Ishonch telefoni – **11-51**

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati – **(71) 202-80-00 (1450), 202-80-83.**

Qo‘mitaning **vab-saytlarida** korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limlari shakillantirildi va ma’lumotlar joylashtirildi.

Rasmiy saytdagi sahifa - <https://stat.uz/uz/haqida/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-idoraviy-komissiyasi>

Elektron pochta manzili - [antikorrupsiya@stat.uz](mailto:antikorrupsiya@stat.uz)

Telegram bot - [@antikorrupsiyastatbot](https://t.me/antikorrupsiyastatbot)

Facebook sahifa - <https://www.facebook.com/uzstataxborot>

**Har chorak yakunlari bo'yicha** qo'mita rahbariyatiga hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot berish yo'lga qo'yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning **huquqi salohiyatini** oshirish maqsadida Ichki nazorat xizmati tomonidan Qo'mitaning [\edm 27](#) Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bo'limida "**Normativ-huquqiy hujjatlar**" nomli hujjatlar to'plami shakllantirilib, unda Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid normativ-huquqiy hujjatlar joylashtirildi hamda joylashtirilganligi yuzasidan xodimlarga axborot berildi.

2021-ilning IV chorak davomida Davlat statistika tizimidagi ishonch telefonlariga hamda yozma ravishda korrupsiya omillari to'g'risida **murojaatlar kelib tushmadi**.

Shu bilan birga 2021- yil davomida Qo'mita tizimi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar va manfaatlar to'qnashuvi omillari bo'yicha holatlar **aniqlanmadi**.

2021-yil davomida davlat tashkilotlaridan kelib tushgan **xatlar** hamda yuqori turuvchi davlat organlaridan kelib tushgan **topshiriqlar** o'rganib chiqilib, belgilangan tartibda javob xati yuborildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi taklifiga asosan, Korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida xalqaro tajribalarga tayangan xolda Agentlik tomonidan yuborilgan **10 ta hujjat** tavsiyalari ko'rib chiqildi va Davlat statistika qo'mitasiga moshlashtirildi. Qo'mita raisi tomonidan buyruq asosida mazkur hujjatlar **rasmiylashtirildi**.

Ichki nazorat xizmati tomonidan **2022- yil uchun chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi** va ishlab chiqilgan reja tegishli boshqarmalarga tanishtirilib rahbaryat tomonidan imzolandi va hududiy statistika organlariga yuborildi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan 2021-yil uchun bajarilgan ishlar hisoboti shulardan iborat ekanligini ma'lum qiladi.